

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
“Qutadg'u bilig”dagi Allohning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida.....	411
X.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalalidina	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida.....	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixolingvistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



UO‘K: 355.48(548.3)“14/15”

TEMURIYLAR DAVRI XORAZM SHAHARLARINING MUDOFAA IMKONIYATLARI**ОБОРОНИТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ХОРЕЗМСКИХ ГОРОДОВ ЭПОХИ
ТИМУРИДОВ****DEFENSIVE CAPABILITIES OF THE KHOREZM CITIES OF THE TIMURID ERA****Usmonov Bahriddin Ahmedovich**

Farg‘ona davlat universiteti t.f.d.

Annotatsiya

Maqolada Amir Temur va temuriylar davridagi Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Temuriylar davrida yuz bergan siyosiy jarayonlar talqinidagi harbiy harakatlar bayonidan kelib chiqib Xorazm shaharlarining mudofaa inshootlarining holati tadqiq qilingan va dastlabki ilmiy xulosalar berilgan. Shahar darvozalari, mudofaa devorlari va handaqlari, ularning janq jarayonidagi ahamiyati Xorazm shaharlari misolida ko‘rsatib berilgan.

Annotatsiya

В статье на основе исторических источников анализируется обороноспособность Амира Темура и городов Хорезма в эпоху Тимуридов. На основе описания военных действий в интерпретации политических процессов, происходивших в период Тимуридов, исследовано состояние оборонных сооружений хорезмийских городов и даны предварительные научные выводы. Городские ворота, оборонительные стены и рвы, их значение в боевом процессе показано на примере хорезмийских городов.

Abstract

The article analyzes the defense capabilities of Amir Temur and the cities of Khorezm during the Timurid era based on historical sources. Based on the description of the military operations in the interpretation of the political processes that occurred during the Timurid period, the condition of the defense structures of the Khorezm cities was researched and preliminary scientific conclusions were given. City gates, defensive walls and ditches, their importance in the battle process are shown on the example of Khorezm cities.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Xiva, Kot, Urganch, Amir Temur, temuriylar, qal‘a, handaq, mudofaa.**Ключевые слова:** Хорезм, Хива, Кот, Ургенч, Амир Темур, Тимуриды, крепость, ров, оборона.**Key words:** Khorezm, Khiva, Kot, Urgench, Amir Temur, Timurids, fortress, ditch, defense.**KIRISH**

Xorazm tarixning barcha davrlarida o‘zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim o‘rin tutgan hududlardan biridir. Voha Amir Temur va temuriylar davridagi siyosiy jarayonlarda, saltanatning chegaralarini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Albatta, bu jarayonda Xorazm shaharlari siyosiy, ma‘muriy, iqtisodiy va harbiy markaz vazifasini ham bajargan.

Temuriylar davri tarixiy manbalarida Xorazm shaharlari haqida ma‘lumotlar ko‘p emas. Muhim siyosiy voqealar, harbiy to‘qnashuvlarning bayoniga bag‘ishlangan sahifalarda vohaning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qal‘alari, ularning mudofaa inshootlari va imkoniyatlari xususida ba‘zi ishoralar uchraydi. Biz quyida ularni imkon qadar tahlil etishga harakat qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarixiy manbalarda Xorazm vohasi “azim shaharlar va keng viloyatlarga boy” ekanligi ta‘kidlanadi[1:87]. Tadqiq etilayotgan davrga oid manbalarda avval Kot[Hozirgi Beruniy shahri. Kat nomi bilan ham shuhrat topgan. Shahar nomi temuriylar davri manbalarida, xususan, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamirlarning asarlarida Kot shaklida berilgan. Qarang: 2: 91; 3: 65; 4: 121; 5: 72; 6: 237; 7: 498; 8:16; 9: 81; Fasih Xavofiy esa o‘z asarida shahar nomi Kat shaklida keltirgan. Qarang:10:149] shahri haqidagi ma‘lumotlarga duch kelamiz. Chunki Amir Temurning Xorazmga

TARIX

qilingan ilk harbiy yurishida dastlabki jang harakatlari shu qal'a uchun bo'lib o'tgan edi. 1372 yilda Kot shahrining Sohirqiron lashkari tomonidan zabt etilishi tasviri ushbu qal'aning mudofaa inshootlari va imkoniyatlari haqida birmuncha tasavvur beradi. "...Kot Hisoiga yetdilar, – deb yozadi Nizomiddin Shomiy, – u yerda Bayramxoja Yasovul Husayn So'fi tomonidan shixna edi, Muayyad qozi esa hukmronlikka sherik edi. Lashkar u yerga yetkanida nochor Hisor darvozasini mahkam berkitdilar va arroda, tiri charxlarni tayyorlab turdilar. Amir Sohirqiron buyrug'iga ko'ra askarlar o'tin va xas-xashak yig'ib kelib, xandaqni to'ldirdilar. ...Xumori Yasovulga ishora qilgan edi, u farmonga bo'ysunib, handaqqa tushdi. ...Buni ko'rgan lashkarlar to'xtovsiz xandaqqa tushdilar va suvdan kechib o'tdilar. Shayx Ali bahodir birinchi galda fasilga ko'tarildi"[2:92; 3: 62]. Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamirlarning asarlarida ham voqea deyarli shunday bayon qilingan[5:73; 6:237; 7:498]. Muiniddin Natanziy va Fasih Xavofiylar esa Kot qal'asida bo'lib o'tgan jang tafsilotlariga to'xtalmaganlar[4:121; 10:124; 9:81].

NATIJA VA MUHOKAMA

Manbalardagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Kot shahri qal'a devori, ya'ni hisor bilan o'rab olingan. Afsuski, hisorning bo'yi va eni haqida ma'lumot berilmagan. Jang haqidagi matnlardan kelib chiqsak, qal'a devorlari juda ham baland bo'lmagan. Deyarli barcha mualliflar qal'aning darvozasi haqida so'z yuritganlar. Ya'ni, qal'a darvozasiga nisbatan ko'plik qo'shimchasini qo'llamaganlar. Bu esa Kot qal'asining yagona darvozasi bo'lganligi xususidagi xulosaga olib keladi. Lekin yozma manbalarga tayanib, masalaga to'la aniqlik kiritib bo'lmaydi. Shahar mudofaa devoridan tashqari handaq bilan ham himoyalangan. Qal'aga hujum boshlanishidan avval handaq Amir Temurning farmoniga ko'ra o'tin va xas-hashak bilan to'ldirilgan. U anchagina keng va chuqur bo'lganligi uchun to'liq to'ldirishga muvaffaq bo'linmagan. Shuning uchun ham Ko'cha Malik ismli bek handaqqa tushishdan bosh tortgan[2:92; 3:60; 5:73-74; 6:237; 7:498]. Nizomiddin Shomiyning ta'kidlashicha, handaqqa kirgan askarlar ham suvdan kechib o'tishga majbur bo'lganlar. Janglardagi eng katta yo'qotish ham aynan handaqdan o'tish jarayonida yuz bergan. Chunki uni kechib o'tayotgan askarlar qal'a devorlari ustidan yog'dirilayotgan o'q va toshlardan o'zlarini himoya qila olmaganlar. Shubhasiz, handaq Kot shahri mudofaa inshootlarining eng muhim qismlaridan biri bo'lgan.

Shu o'rinda Kot shahri himoyachilari tomonidan ishlatilgan harbiy texnikalar haqida ham to'xtalib o'tish lozim. Chunki ularsiz Kot shahrining mudofaa imkoniyatlarini to'la tushunib bo'lmaydi. Yuqorida ko'rganimizdek, Nizomiddin Shomiy kotliklar arroda va tiri charxlarni jangga tayyorlaganliklarini ta'kidlagan. Ma'lumki, arroda murakkab harbiy texnika bo'lib muhosara vaqtida qal'a devorini buzish uchun qo'llanilgan, g'ildirak ustiga o'rnatilgan, katta toshlarni otishga moslangan maxsus qurilmadir[2:506]. Tiri charx esa aylanib o'q otuvchi harbiy qurilma hisoblanadi. Unda ko'p holarda temirdan yasalgan uchi uchli o'qlar dushman tomonga otilgan. Shuningdek, snaryad shaklidagi ichiga porox solingan o'qlar yoqilgan holatda raqib ustiga uloqtirilgan. Ba'zi vaqtlarda esa neft to'ldirib, yondirilgan tarzda ham irg'itilgan[2:517]. Bizningcha, kotliklar bu jangda tiri charx orqali uchi uchli o'qlarni raqib ustiga yog'dirganlar. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, aslida bu qurollar asosan qal'alarni shturm bilan egallashda qo'llanilishga mo'ljallangan. Lekin ular shaharni himoya qilishda ham juda katta samara bergan. Bu haqida Sharafuddin Ali Yazdiy ham alohida to'xtalib o'tgan:

"Chu ikki tarafdin urush bo'ldi tang,
Yarash eshigin bog'ladilar chu sang.
Ravon ettilar o'q va tosh qal'din
O'q va tosh bilan to'ldi ro'yi zamin." [5:73; 6:237]

Kot shahri himoyachilarida arroda va tiri charxlarning mavjudligi hamda jang vaqtida ulardan samarali foydalanilganligi qal'aning harbiy imkoniyatlari yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Shahar Amir Temur lashkari tomonidan zabt etilganidan so'ng mudofaa inshootlariga zarar yetkazilmagan. Aksincha, yillar davomida ular mustahkamlanib borilgan. Tarixiy manbalarda Kot shahrida bo'lib o'tgan boshqa janglar haqida ma'lumotlar mavjud emas. Faqatgina Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan 1430-1431 yillari Ko'chmanchi o'zbeklar davlati asoschisi Abulxayrxonning Xorazmga qilgan hujumi vaqtida voha hokimi amir Ibrohimning Kot shahriga chekinganligi qayd etilgan. Bu ham yuqoridagi fikrimizni asosli ekanligini ko'rsatadi. Manbalardagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Amir Temur va temuriylar davrida Kot shahri mustahkam mudofaa

inshootlariga ega bo'lgan shahar edi. U Amudaryo o'ng qirg'og'idagi Xorazm yerlarining eng asosiy harbiy markazi bo'lgan.

XIV-XV asrlarda ham janubiy Xorazmning asosiy shaharlaridan biri Xiva edi. Temuriylar davri manbalarida shahar Xiva [2:91; Shu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, Shomiy "Zafarnoma"ning o'zbek tilidagi nashrining 34-sahifasida shahar nomi Xivaq shaklida berilgan. Lekin asarning biz foydalangan forsiy nashrida Xiva shaklida yozilgan. Qarang: 3:19; 4:56] va Xevaqa [5:72; 6:237; 8:16; 9:81; 10: 284] nomlari bilan atalgan. Lekin manbalarda Xiva shahrining mudofaa inshootlari haqida ma'lumotlar kam. Buning asosiy sababi Xiva shahrida bo'lib o'tgan jangovar harakatlar haqidagi ma'lumotlar temuriylar davri muarrixlarining asarlaridan joy olmagan. Shahar nomi manbalarda faqat 1362-yili Amir Temurning Husayn bilan birgalikda Xiva atroflariga kelishi va uning hokimi Tukul bilan jang qilishi[2:34; 3:19; 4:56; 5:26; 6:42], 1371-yili Sohibqiron tomonidan Xorazmga elchi yuborilishi[2:92; 3:60; 4:71; 5: 237], 1431 yili Xorazm hokimi amir Ibrohimning Xiva viloyatiga chekinishi kabi tarixiy voqealar munosabati bilan tilga olingan[10:284; 8:16]. Faqatgina Sulton Husayn Bayqaroning Xorazmdagi faoliyati bilan bog'liq matnlarda Xiva shahrining darvozalari, qal'a devori, devorning ustki yo'laklari haqida qiziqarli ma'lumotlar bor[9:700]. Xiva shahrining Amir Temur va temuriylar davridagi tarixini manbalar orqali kuzatish bizga ushbu shaharning mudofaa inshootlari va imkoniyatlarini Kot shahri kabi bo'lganligini taxmin qilish imkonini beradi.

Amir Temur va temuriylar davrida ham Xorazmning siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy va harbiy markazi Urganch shahri edi. Temuriylar davri manbalarida shahar asosan Xorazm nomi bilan atalgan [2:91; 3:65; 4:121-123; 5:72-76; 10:147 Fasih Xavofiy shahar nomini Jurjoniya shaklida ham qayd etgan. XIV asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy voqealar haqida so'z yuritganida shaharni Xorazmning Jurjoniyasi (shu nashrning 43, 73, 80, 86,92 sahifalari), deb atagan. Muallif Amir Temur va temuriylar davri voqealarini hikoya qilganida esa shaharni faqat Xorazm nomi bilan atagan; 10: 231-236; 9: 95; 12: 146]. XIV asr o'rtalarida Urganch o'z davrining yirik va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan shaharlaridan biri bo'lib, bu haqida ibn Battuta va ibn Arabshohlarning bergan ma'lumotlari juda qimmatlidir [13:57-63; 1:87-88].

Urganch shahri mudofaa inshootlari va harbiy imkoniyatlarining yuqori darajada bo'lganligi Amir Temur tomonidan XIV asrning 70-80 yillarida Xorazmda olib borilgan harbiy harakatlar bayonida yaqqol aks etgan. Shahar mustahkam va baland qal'a devori, keng va chuqur handaq bilan o'rab olingan. Shuningdek, shaharning bir necha mustahkamlangan darvozalari bo'lgan[5:74]. Shahar yirikligi sababli qal'a devorlari ham uzun bo'lib, ular ma'lum bir masofada atrofni o'qqa tutishga mo'ljallangan baland minoralar bilan kuchaytirilgan hamda katta hududni qamrab olgandi.

Amir Temur 1372-yili birinchi bor Urganchga kelganida shaharni qamal qilish uchun katta harbiy kuch kerakligini tushungan. Qo'shinni to'liq qamal ishlariga jalb qilish lashkarni oziq-ovqat va yem-hashak bilan ta'minlashda muammo keltirib chiqarishi mumkin edi. Shuning uchun ham u shaharni qamal qilishga jur'at etmagan. Amir Temur lashkar bilan qal'adan uzoqroqqa joylashib, o'z qo'shinining katta qismini oziq va yem-hashak to'plash uchun atrofga tarqatib yuborgan. Yusuf So'fi Amir Temur qo'shinlarining atrofga tarqatilganligidan foydalanib qolishga qaror qilgan. Bunga Amir Temur qo'shini safidagi yirik beklardan biri Kayxusrav Xuttaloniyning Xorazm hokimi bilan yashirin aloqa bog'lab, uni jangga da'vat qilgani ham sabab bo'lgan. Shahardan ikki yig'och (taxminan 12-16km) masofaga chiqib jangga kirgan Yusuf So'fi mag'lub etilgan. Shundan keyingina Sohibqiron qal'aga yaqinlashib, uni muhosara qilmoqchi bo'lganligini Muiniddin Natanziy alohida ta'kidlagan[4:121].

Urganchning mudofaa inshootlari va ularning imkoniyatlari Amir Temurning 1379 yilgi hujumi vaqtida ham ko'zga tashlangan. Shu yurish davomida Sohibqiron birinchi bor qal'ani to'liq o'rab olishni buyurgan va uni uch oy o'n olti kun qamal qilgan[9:95]. "Ertasi kuni, - deb yozadi Natanziy, - Amir Sohibqiron ko'chishni buyurib, qal'a devori yaqiniga kelib joylashdi. Shundan so'ng manjaniq va arrodalar uchun tepaliklar bunyod etish hamda ra'd va qarobug'rolarni sozlashga boshladilar. Manjaniqning sopqonidan otilgan dastlabki tosh qarshidagi minoraning qubbasini urib tushirdi. Boshqa bir tosh Yusuf So'fi qasrining peshtoqiga borib tegdi va uch qavatni vayron etib, qariyb yuz gaz devorni qulatdi. ... Shahar muhandislari manjaniq toshlariga qarshi tadbir sifatida ichiga somon va paxta to'ldirilgan teri qoplar tayyorlashni o'ylab topishdi. Amir Sohibqiron neft

TARIX

idishlaridagi (yonuvchan) moddani o'q uchida ularning bu moslamasiga qaratib otishni buyurdi" [4:123].

Natanziyning bu ma'lumotlari bir necha xulosalarni keltirib chiqaradi: Birinchidan, shaharning mudofaa devorlari anchagina baland bo'lganligi uchun Amir Temur o'z qamal texnikalari samaradorligini oshirish maqsadida sun'iy tepaliklar qurib, ularning ustiga manjaniq, arroda, ra'd va qarobug'rolar o'rnatilgan. Shu jangda Amir Temur ilk bor o't sochar qurollardan foydalangan.

Ikkinchidan, qamal texnikalari va o't sochar qurollar orqali zarbalar asosan qal'aning minoralari va burjlariga berilgan. Chunki qal'a himoyachilari uchun burj va minoralar orqali hujum qiluvchilarni o'qqa tutish qulay edi.

Uchinchidan, qal'a himoyasining nozik tomoni sifatida hokim qasrini qal'a burjiga yaqin qurilganligini ko'rishimiz mumkin. Manjaniqdan otilgan toshlarning qasrga yetib borganligi ham buni tasdiqlaydi, qolaversa Shomiy ham hokim qasri qal'a burjida solinganligini ta'kidlagan. Aynan qasrning vayron bo'lishi ham shahar himoyachilarining jangovar ruhiga salbiy ta'sir qilgan.

To'rtinchidan, Yusuf So'fining qasri uch qavat bo'lib, o'z davrining yuksak imoratlaridan biri bo'lgan.

Lekin Amir Temur shaharni shturm bilan egallashga muvaffaq bo'la olmagan. Yusuf So'fining to'satdan vafot etishi natijasida, shahar ichida boshlangan ichki kurash sababli Xorazm beklaridan biri Xo'jaloq o'z boshqaruvidagi darvozani raqiblarga ochib berishi urush taqdirini hal qiladi.

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda 1388-yilgi yurish davomida Urganch shahri jangsiz egallangan va uning mudofaa inshootlari buzib tashlangan[2:145; 4:144-145; 5:119; 1:102; 10:147; 9:121]. Lekin Amir Temur 1391-yili Urganch shahri va uning mudofaa inshootlarini qayta tiklashni buyurdi va bu ish amir Musoko tomonidan amalga oshirildi[4:144-145; 9:122; 10:149].

Urganchning yangi tiklangan mudofaa inshootlari avvalgilari singari mustahkam bo'lgan. XV –XVI asrning boshlari davomida shahar bir necha bor uzoq muddatli qamallarni yoki janglarni boshdan o'tkazgan bo'lsa ham biror marta shturm bilan zabt etilmaganligi qal'a devorlarining mustahkamligidan dalolat beradi. Shahar ko'p hollarda sulh yoki hokimlarning qal'ani o'z holiga tashlab qochib ketishi natijasida qo'lga kiritilgan. 1406-yili Dashti Qipchoq amiri Idiku bostirib kelganida amir Muso Xorazmni jangsiz topshirib, Xurosonga chekinadi. 1411-yili esa Urganchni 7 oy qamal qilgan Dashti Qipchoq qo'shini sulh tuzib ortga qaytishga majbur bo'lgan. 1412-yili Shohrux mirzo yuborgan qo'shin ham shaharni zabt eta olmay Xurosonga qaytgan. Faqat 1413-yili Amir Shohmalik boshchiligidagi qo'shin muzokaralar yo'li bilan shaharda temuriylar hukmronligini tiklagan[11:231-236]. 1431 va 1435 yildagi Abulxayrxonning yurishlari vaqtida ham Xorazm hokimi amir Ibrohimning jangsiz chekinishi natijasida aholi shaharni topshirishga majbur bo'lgan [8:15-16, 60].

Urganch qal'asi mudofaa inshootlarining holati Muhammad Soliq qalamiga mansub "Shayboniynoma" asarida ancha batafsil bayon qilingan. Unda hikoya qilinishicha, qal'a chuqur va keng handaq bilan o'rab olinganligi uchun ham undan o'tish chog'idayoq shayboniylar lashkari katta talofat ko'rgan. Narvonlar orqali qal'a devori ustiga chiqib olishga bo'lgan urinishlar ham samara bermagan. Shundan so'ng asosiy e'tibor qal'a devorini buzishga qaratilgan. Garchi bir necha joyda qal'a devoriga rahna solishga erishgan bo'lsalar-da, shahar aholisi tezda zarar yetgan joylarni qaytadan berkitgan. E'tiborli tomoni devorning kengroq buzilgan joylariga arobalar o'rnatishib, uning ustini kigiz bilan yopishgan. Bu tadbir yaxshi samara berib, himoyachilarni raqiblarning o'q va toshlaridan muvaffaqiyatli muhofaza qilgan. O'n oylik qamal vaqtida shayboniylar lashkarining bir necha bor shaharni hujum bilan olishga urinishlari foyda bermagan. Himoyachilar ochlikdan sillasi quriganligi natijasidagi shahar zabt etilgan. Shahar ichidagi hukmdor arki ham alohida mudofaa obyekti bo'lib, u yerda ham jiddiy janglar bo'lib o'tgan. Shuningdek, Muhammad Solih shaharning e'tiborli binolaridan biri Oqsaroy ekanligini ham qayd etgan[14:275-316].

Urganch shahrining shayboniylar qo'shini tomonidan zabt etilishi xususida Bobur mirzo ham alohida to'xtalib o'tgan: "Xorazm yigitlari bisyor mardonaliqlar qildilar, hech taqsir qilmadilar, andoq tiyrandozliq qildilarkim, borlar qalqondin, jibadin ba'zi mahalda ikki jibadin o'tkara-o'tkara otibturlar. O'n oy qabaldorliq torttilar, hech yerdin umidvorliq bo'lmadi. Ba'zi yigit-yalangi bedillik qilib, o'zbek

bila so'zlashib, o'zbekni qo'rg'ong'a chiqordilar. Chin So'fi xabardor bo'lib, o'zi kelib qo'rg'ong'a chiqqonlarni urub tushurur mahalda shiba o'qi tegib, o'zining chuh-rasi keyindin o'q bila urdi, o'ldi. Urushur kishi qolmadi, qo'rg'onni oldilar. Rahmat Chin So'fig'a: mardonaliq bila jon tortmoqda daqiqai namar'i qo'ymadi." [12:146]

Xorazmning yirik shaharlaridan biri Vazir shahri edi. Bu shaharga XV asr o'rtalarida Dashti Qipchoq sultonlaridan Mustafaxon asos solgan va u yerga Urganch aholisining bir qismi ko'chirilgan. U Ustyurtning janubida, Urganchdan 60 km janubiy-g'arbda joylashgan edi. Vazir shahri chuqur handaqlar bilan o'ralgan bo'lib, e'tiborli tomoni uning mudofaa inshootlari, ya'ni minoralar va devorlari paxsa, xom g'ishtdan emas, balki shu yerning toshlaridan qurilgandi [15:52; 16:72]. Shuningdek, shahar qal'asining tashqarisidagi bir necha mustahkamlangan imoratlardan shaharni himoya qilishda foydalanilgan. 1460-1461 yillari Sulton Husayn Bayqaro Vazir shahrini 41 kun qamal qilib, egallay olmaganligi manbalarda qayd etilgan. Lekin ko'p o'tmay, ikkinchi bor shaharga yurish qilib, uni zabt qilishga erishgan. Muarrir Vazirning mustahkamlangan darvozalari va burju borlari uchun shiddatli janglar olib borilganligini ta'kidlagan. Shunga qaramay, dasht amirlari o'rtasidagi yuz bergan nizo natijasidagina Sulton Husayn Bayqaro shaharni egallashga erishgan [9:687,695-696].

Temuriylar davri yozma manbalarida Hazorasp shahri haqida ma'lumotlar juda oz. Ular shaharning mudofaa inshootlari va imkoniyatlari haqida so'z yuritish imkonini bermaydi [9:701; 14:309].

Shuningdek, Xorazmning chegara hududlarida bir necha kichikroq shahar qal'alar ham mavjud edi. Ular asosan Xorazmning g'arbiy qismida joylashgan edi. Adoq [9:674-701,964; 17:51-54] (Sariqqamish ko'lining sharqiy sohilida [16:279]), Bulumsoz (Buldumsoz) [9:964; 17:51-54], Tirsak [9:964; 17:51-54], Qumkent (Qumkand) [5:119; 4:145] shahar-qal'alari shular jumlasidandir. Ushbu qal'alarning mudofaa inshootlari haqida yozma manbalarda kengroq ma'lumot saqlanmagan bo'lsa-da, ular Xorazmni ko'chmanchilarning hujumlaridan himoya qiluvchi muhim strategik obyektlar edi.

XULOSA

Temuriylar davriga oid yozma manbalari Xorazm shaharlarining mudofaa inshootlari va imkoniyatlari haqida qiziqarli, muhim ma'lumotlar taqdim eta oladi. Ularni arxeologik tadqiqotlarning natijalari bilan birgalikda qiyosiy o'rganish yozma manbalardagi ma'lumotlarni to'ldirib, ushbu masalani to'laqonli tahlil etish imkonini beradi.

XIV asrning ikkinchi yarmidan to XVI asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi siyosiy jarayonlar, qolaversa, Xorazm vohasining ko'chmanchilar istiqomat qiluvchi hududlar bilan har tomonlama chegaradoshligi shaharlarning mudofaa inshootlariga e'tiborni kuchaytirishni va ularning harbiy imkoniyatlarini yuqori saviyada saqlab turishni talab qilgan. XV asr boshlarida, shuningdek, XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida markazlashgan davlat tartibotining kuchsizlanishi Xorazm shaharlari mudofaa imkoniyatlarini zaiflashtirdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. 1- китоб. – Т.: “Меҳнат”, 1992.
2. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўғирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и («Илова»)ни форсийдан ўғирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. نظام الدين شامى. ظفرنامه. خرداندنامه: طهران، 1944. – ص. 65
4. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Фулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011.
5. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997.
6. شرف الدين على يزدي. ظفرنامه. بتصحيح و تحشيه سالک مسالک صدق و سداد خير خواه عباد مولوى محمد الھداد. جلد اول. کلکتہ. 1887. ص237
7. حافظ ابرو. زویة التواریخ. مقدمه، تصحیح و تعلیقات: کمال حاج سید جوامی. در چهار جلد. تهران، 1380؛ 498ص
8. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саздайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Ж. II. Қ. II-III. 1429 – 1470 йил воқеалари. – Т.: «O'zbekiston». 2008.
9. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013.

TARIX

10. Фасиҳ Хавофий. Мужмали Фасиҳий: Фасиҳ тўплами / Фасиҳ Аҳмад ибн Жалолиддин Муҳаммад ал-Хавофий. Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар Д.Ю. Юсупованики. – Т.: “Фан”, 2018. – Б. 149.
11. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Уринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т. : «O'zbekiston». 2008.
12. Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / Нашрга тайёрловчи Парсо Шамсиев. – Т.: Юлдузча, 1989.
13. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати – Т.: Шарқ Баёзи, 1993.
14. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Э. Шодиев. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
15. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти – «Нур», 1992.
16. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2017.
17. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И. Бекжонов, Д. Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.